

O‘ZBEKISTON FANLAR AKADEMIYASI MUHBIR A‘ZOSI, TIBBIYOT  
FANLARI DOKTORI, PROFESSOR, TOSHKENT TIBBIYOT  
AKADEMIYASINING TANIQLI AKADEMIGI –

Nosir Ismoilov Ismoilovich  
*Toshkent tibbiyot akademiyasi*  
*Pediatrica, stomatologiya, xalq tabobati va*  
*tibbiy pedagogika fakulteti talabasi*  
Ismoilova Feruza

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada O‘zbekiston fanlar akademiyasi akademigi, Respublika Terapevtik maktabi asoschisi Nosir Ismoilov Ismoilovich haqida. Dotsent, Professor va Akademik lavozimlarini egallagan N.I. Ismoilov ovqatlanish sohasida ilmiy tadqiqotlarining asosiy yo‘nalishlari alimentar geliotrop toksikoz va trixodesmotoksikozning oldini olish va davolash, ichak kasalliklarida vitamin terapiyasiga bag‘ishlangan.*

**Аннотация:** *Эта статья о Насире Исмаилове Исмаиловиче, академике Академии наук Узбекистана, основателе Республиканской терапевтической школы. Н.И. Исмаилов, занимающий должности доцента, профессора и академика, занимается профилактикой и лечением алиментарного гелиотропного токсикоза и триходесмотоксикоза, витаминотерапией при заболеваниях кишечника.*

**Annotation:** *This article is about Nasir Ismailov Ismailovich, academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan, founder of the Republican Therapeutic School. N.I. Ismailov, who holds the positions of associate professor, professor and academic, focuses on the prevention and treatment of alimentary heliotrope toxicosis and trichod esmotoxicosis, and vitamin therapy in intestinal diseases.*

## KIRISH

Nosir Ismoilovich Ismoilov—1901-yil 27-mayda Toshkent shahrida dehqon oilasida tug‘ilgan. Uning mehnat faoliyati 1918-yilda boshlangan. Maktab o‘qituvchisi bo‘lib ishlagan va Farg‘ona vodiysi qishloqlarida savodsizlikni yo‘q qilishda o‘zining munosib hissasini qo‘shgan. N.I. Ismoilov O‘rta Osiyoda bosmachilarni mag‘lub etishda ham qatnashgan

1929-yilda esa O‘rta Osiyo universitetining davolash fakultetini tugatgandan so‘ng umrining so‘nggi kunlarigacha Toshkent tibbiyot institutida tinimsiz tibbiy-pedagogik va ilmiy ishlarni amalga oshirdi. N.I. Ismoilov



Toshkent tibbiyot institutida klinikalar bosh shifokori o‘rinbosari, so‘ng o‘quv va ilmiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari lavozimlarida ishlagan. Bu yerda u ketma-ket rezident, assistent, dotsent, professor lavozimlarida ishlagan.

1942-1971-yillarda tibbiyot fakultetining ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasini boshqargan va aynan shu yillarda maslahatchi professor lavozimida ham ishlagan.

N. I. Ismoilov — O‘zbekistonning birinchi shifokorlaridan biri hisoblanadi va respublika terapevtik maktabini yaratishda uning hissasi juda katta.

U o‘z shogirdlari bilan birgalikda O‘rta Osiyo aholisi o‘rtasida mintaqaviy patologiya, gastroenterologiya, gepatologiya muammolari va shu bilan bir qatorda turli ichak kasalliklarida parhez terapiyasi va vitamin terapiyasi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib bordi. N.I.Ismoilovning ovqatlanish sohasidagi ilmiy tadqiqotlarining asosiy yo‘nalishlari alimentar geliotrop toksikoz va trixodesmotoksikozning oldini olish va davolash, ichak kasalliklari va jigar kasalliklarida vitamin terapiyasiga bag‘ishlangan. N. I. Ismoilov tomonidan ilgari surilgan bir qator qoidalar va fikrlar oziq-ovqat gigiyenasi va terapiyasi bo‘yicha qo‘llanmaga kiritilgan.

Asosiy qism: N. I. Ismoilov 100 dan ortiq ilmiy ishlar va bir qator darsliklar muallifi. “Geliotrop toksikoz”(1948-yil), “Trixodesmotoksikozning klinikasi, diagnostikasi va davolashi” (1970-yil), “O‘rta Osiyoda ichak kasalliklari to‘g‘risida” (1949-yil) va boshqa yirik monografiyalar muallifi. Ibn Sinoning «Tib qonunlari» asarining birinchi akademik jildlari N. I. Ismoilov muharriri ostida nashr etilgan. Bu asarlarning barchasi katta ilmiy izlanishlar va muallifning ko‘p yillik mehnati va xizmatlari natijasidir.

N. I. Ismoilovning asarlari turli ixtisoslik shifokorlari uchun amaliy yordam bo‘lib xizmat qilmoqda

Ismoilov rahbarligida ko‘plab yuqori malakali tibbiyot kadrlari, shu jumladan, 3 nafar fan doktori va 15 nafar tibbiyot fanlari nomzodi tayyorlandi. Hozirgi kunda uning bir qancha shogirdlari kafedra mudirlari bo‘lib ish yuritadilar.

N.I.Ismoilov rahbarligida kafedra xodimlari tomonidan 350 dan ortiq ilmiy ishlar, 8 ta monografiya va 3 ta klinik ishlar to‘plami nashr etilgan.

N. I. Ismoilov jamoat hayotida ham faol ishtirok etgan.

Ikki marta tuman va shahar Kengashlari deputati etib saylangan, O‘zbekiston SSR Sog‘liqni saqlash vazirligi ilmiy-tibbiyot kengashi raisining o‘rinbosari, Respublika va Butunittifoq terapevtlar jamiyati a‘zosi, tibbiyot fanlari nomzodi. SSSR Fanlar akademiyasi biologiya bo‘limi, “Oziqlanish



muammolari”, “Terapevtik arxiv”, “O‘zbekiston tibbiyot jurnali” jurnallari tahririyati a’zosi bo‘lgan.

Uzoq va samarali mehnati uchun N. I. Ismoilov ikkita Mehnat Qizil Bayroq ordeni, uchta medal, O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining Faxriy yorliqlari bilan taqdirlangan.

Xulosa: Shunday qilib, tayyorlangan maqoladan ko‘rinib turibdi-ki, Nosir Ismoilovich Ismoilovning qilgan mehnatlari va ishlari biz yoshlarga havas qilsa arzigulik. Uning tibbiyotda qo‘shgan o‘zining hissasi hozirgi kunda va erta kelajakda yetishib kelayotgan biz kadrlar uchun qaysidur ma’noda yordam va dars bo‘ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://uzmedlib.uz> › 2023/08/24
2. <https://scinews.uz> › tag › ismailov-n...
3. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi

